



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA

Samadova Hamida

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti O‘ZMPU
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 401-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dramaturg Erkin Xushvaqtovning hayoti va ijodiy yo‘li, dramalarining mazmuni va g‘oyaviy-badiiy tahlili hamda ularning tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: pyesa, Usmon Azim, teatr, Erkin Xushvaqtov, sahna asarlari, yoshlar, “Alpomishning qaytishi”, dialog, she’riy nafosat, drama

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и творческий путь драматурга Эркина Хушвактова, содержание, идеологический и художественный анализ его пьес, а также их образовательное значение.

Ключевые слова: пьеса, Усман Азим, театр, Эркин Хушвацов, сценические произведения, молодежь, “Возвращение Алпомыша”, диалог, поэтическая элегантность, драма

Abstract: This article covers the life and creative path of playwright Erkin Khushvaqtov, the content and ideological and artistic analysis of his dramas, and their educational significance.

Keywords: Usman Azim, theater, Erkin Khushvaqtov, stage works, youth, “The Return of Alpomish”, dialogue, poetic elegance, drama

KIRISH

O‘zbek dramaturgiyasi o‘zining uzoq yillik tarixi va an‘analari, qadriyatga ega bo‘lib, u Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlaridan boshlanib, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Said Ahmad singari ijodkorlar ijod namunalari bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Mustaqillik yillarida esa o‘zbek teatri va dramaturgiyasi yangi sahifalarini ochdi. Bu kabi yangi sahifaning yorqin belgilaridan biri dramaturg Erkin Xushvaqtovning komediyalari va dramalarining sahnalarga ko‘tarilishi, sahnalashtirilishi bo‘ldi. Bugungi adabiy jarayonda dramaturgiya o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sahna asarlari nafaqat tomoshabinni zavqlantiradi, balki ularni tarbiyalaydi, insoniy qadriyatlar, milliy an‘analar va axloqiy me‘yorlar to‘g‘risida o‘ylashga undaydi. Shu jihatdan Erkin Xushvaqtovning ijodi alohida e‘tiborga loyiq, chunki u o‘z asarlarida zamonaviy hayot muammolarini, oilaviy qadriyatlar va insoniy munosabatlarni mahorat bilan aks ettirgan.

ASOSIY QISM

Erkin Xushvaqtov 1959-yil 15-martda Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani Chambil qishlog‘ida tavallud topdi. Uning bolalik va yoshlik yillari Shahrisabz muhitida kechdi. O‘rta maktabni 1976-yilda tamomlagach, Erkin Xushvaqtov o‘sha yiliyoq Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Madaniyat instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti)ning “Havaskorlik teatri jamoasi

rejissyorligi” bo‘limiga o‘qishga kirdi va 1983-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi. Keyinchalik, teatr sohasiga o‘z sadoqatini ijodiy faoliyati bilan uyg‘unlashtirdi. Erkin XushvaqtoVning sahna asarlari O‘zbek Milliy akademik drama teatri, Abdulhamid Hidoyatov nomidagi drama teatri, Yosh tomoshabinlar teatri va Respublika qo‘g‘irchoq teatri sahna lashtirilgan. U nafaqat dramaturg sifatida, balki o‘zbek sahna san‘atining jadal rivojiga hissa qo‘shgan ijodkor sifatida keng jamoatchilikka tanilgan ijodkorlarimizdan biridir. Adabiyotshunoslar ta‘kidlaganidek, mustaqillik yillarida teatr san‘ati Erkin XushvaqtoV komediyalari bilan qaddini qayta tikladi. Bu baho dramaturgning o‘zbek teatr san‘atiga qo‘shgan hissasini to‘la-to‘kis ifodalaydi. U o‘z asarlarida milliy o‘zbek mentalitetini, an‘anaviy qadriyatlarni va zamonaviy hayot ziddiyatlarini badiiy mahorat bilan qo‘shib tasvirladi.

Erkin XushvaqtoV dramaturgiyasida birqator xususiyatlarni mujassamlashtirgan. Masalan, u hayotga yaqin obrazlarni yaratgan. Tomoshabin spektaklni kuzatish jarayonida o‘zini begonadek his etmaydi, chunki sahnada ko‘rgan qahramonlar, dialoglar va ziddiyatlar haqiqiy hayotda bo‘ladigan voqealarga o‘xshab ketadi. Keyingi bosqich esa, milliy kolorit va an‘analarni asarlarining asosiy belgisi sifatida saqlab qolinganligidir. Uning qahramonlari o‘zbek xalqiga xos xulq-atvor, til boyligi, odob-axloq mezonlari va urf-odatlar olamida yashaydilar. Bu esa asarlarni milliy ruh bilan to‘yintiradi. XushvaqtoVning dramalarida oilaviy qadriyatlar, milliy tarix, madaniyatga muhabbat, axloqiy g‘oyalarni hamda bolalar uchun ezgulik, yaxshilik, halollik tamoyillari yosh avlodga yetkazishda muhim hisoblanadi. Dramaturgiya sohasida jam, she‘riyatda ham samarali faoliyat yuritib kelayotgan yana bir ijodkorimiz Usmon Azim dramalarida lirik ruh saqlab qolinganligining guvohi bo‘lamiz. Dialoglar she‘riy nafosatga boy, qahramonlar nutqi tasviriy vositalar bilan bezangan. Bu xususiyat uning dramalarini oddiy sahna asarlaridan ajratib turadi.

Uning “Alpomishning qaytishi” dramasi yoshlarimizda milliy g‘ururni, yurt muhabbatini, ajdodlar merosiga hurmatni tarbiyalaydi. Alpomish obrazi orqali jasurlik, sadoqat va erkinlik ideali yoshlar ongiga singdiriladi. “Kunduzsiz kechalar” va “Bir qadam yo‘l” pyesalari insoniy munosabatlar, sadoqat, mehr-muhabbat va ma‘suliyat haqida muhim darslar beradi. Qahramonlarning hayotiy tanlovlari o‘quvchi va tomoshabinni o‘z hayotini anglashga undaydi. “O‘tgan zamon hangomalari” kabi asarlar o‘zbek xalqining boy tarixini dramatik shaklda ifodalab, yoshlarni tariximizga qiziqtirishga, uni o‘rganishga undaydi.

Usmon Azimning badiiy mukammal dramalari bilan tanishish yoshlarda go‘zallik tuyg‘usini, adabiy did va badiiy zavqni shakllantiradi. She‘riy dialoglar tilning go‘zalligini his etishga yordam beradi va ta‘sirchanlik darajasini ham oshiradi. Uning dramalarida inson qadr-qiymati, uning kechinmalarini va ichki olamini tushunish mavzulari turadi va bu kitobxonni hamdardlik, insonparvarlik, mehr-oqibat tuyg‘ularining mustahkam shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Usmon Azim va Erkin XushvaqtoV dramalari milliy teatrimizni boyitibgina qolmay, balki yoshlar tarbiyasida ham muhim o‘rin tutmoqda. Tarbiyaviy jihatdan esa Erkin XushvaqtoV asarlari oilaviy qadriyatlarni, milliy tarix va madaniyatga muhabbatni, axloqiy g‘oyalarni hamda bolalar uchun ezgulik va halollik tamoyillarini yosh avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar

adabiyoti fani doirasida dramaturgiya mavzusini o'rganishda Erkin Xushvaqtov ijodiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bugungi adabiy jarayonda dramaturgiya sohasi o'z o'rnini saqlab qolmoqda va Erkin Xushvaqtov, Usmon Azim kabi ijodkorlar bu yo'nalishning tirik peshqadam vakillari sifatida o'zbek madaniyatiga o'lmas hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularning ijodini o'rganish, tahlil qilish va keng omma, xususan yoshlarga yetkazish bugungi adabiyotshunoslar va o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmon Azim. Bir qadam yo'l: Pyesa. — Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. Usmon Azim. Kunduzsiz kechalar: Drama. — Toshkent: O'zbekiston, 1999.
3. Qodirov P. Hozirgi o'zbek adabiyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 2015.
4. Xushvaqtov E. Chimildiq: Sahna asarlari to'plami. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2009.
5. Norqobil Q. Qo'chqor Norqobil dramaturgiyasida inson taqdiri. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 2022.
6. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Yo'ldoshev Q. Badiiy mahorat asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2009.
8. Abdullayev S. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. — Toshkent: Fan, 2003.
9. Nazarov B. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Sharq, 2015